

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

LATIPOV SHAHRIYOR BAXTIYOROVICH

**PARAMETRIK NOANIQLIKLAR VA TASHQI G‘ALAYONLAR
MAVJUDLIGI SHAROITIDA ETALON MODELLI ADAPTIV
BOSHQARISH TIZIMLARINI SINTEZLASH ALGORITMLARI**

05.01.08 - Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarish

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Latipov Shahriyor Baxtiyorovich

Parametrik noaniqliklar va tashqi g'alayonlar mavjudligi sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlari..... 3

Латипов Шахриёр Бахтиёрович

Алгоритмы синтеза адаптивных систем управления с эталонной моделью в условиях параметрической неопределенности и наличия внешних возмущений..... 21

Latipov Shahryor Bakhtiyorovich

Algorithms for the synthesis of adaptive control systems with a reference model under conditions of parametric uncertainty and the presence of external disturbances.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works42

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.03.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

LATIPOV SHAHRIYOR BAXTIYOROVICH

**PARAMETRIK NOANIQLIKLAR VA TASHQI G‘ALAYONLAR
MAVJUDLIGI SHAROITIDA ETALON MODELLI ADAPTIV
BOSHQARISH TIZIMLARINI SINTEZLASH ALGORITMLARI**

05.01.08 - Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarish

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T3652 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdtu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Botirov To'liqin Vafokulovich texnika fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Sevinov Jasur Usmonovich texnika fanlari doktori, professor Xusanov Suban Nurullayevich PhD, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.03.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «15» 03 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32; e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (7 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2. Tel.: (99871) 207-14-70.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «27» 02 kuni tarqatildi.
(2025-yil «12» 01 dagi 23 raqamli reyestr bayonnomasi).



N.R.Yusupbekov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor, O'zR FA akademigi

U.F.Mamirov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., professor

X.Z.Igamberdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
t.f.d., professor, O'zR FA akademigi

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda soʻnggi vaqtlarda ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, mavjud texnologiyalarni takomillashtirishga, shuningdek, murakkab dinamik obyektlarni adaptiv boshqarish tizimlarini ishlab chiqishga yoʻnaltirilgan innovatsion texnologiyalarni yaratishga alohida ahamiyat berilmoqda. Soʻnggi yillarda, obyektlarning dinamik xususiyatlariga mos ravishda turli funksional maqsadlar uchun adaptiv boshqarish algoritmlarini sintez qilish va etalon modellari asosida optimal boshqarish tizimlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boshqarish jarayonlarining murakkabligini va obyektlarning nomaʼlum yoki oʻzgarayotgan parametrlarini hisobga olgan holda, etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini rivojlantirish va ularni samarali qoʻllash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanmoqda.

Jahonda ishlab chiqarish sanoatidagi texnologik jarayonlarni boshqarish tizimlari tomonidan ishlab chiqilayotgan boshqarish qonunlarining aniqligi, qaror qabul qilish jarayonining tezkorligi va turli xalaqitlar taʼsirida ham maqbul yechimni topib berishiga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, dinamik obyektlarni boshqarish tizimlarining turli xil gʻalayon taʼsirlarga moslashuvchanligini taʼminlash maqsadida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini ishlab chiqish, parametrik noaniqliklar sharoitida boshqariladigan obyektlarning holatini baholashga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot yoʻnalishi doirasida, ayniqsa etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash usullari va algoritmlarini takomillashtirish, shuningdek, nomaʼlum parametrlar va tashqi gʻalayonlarga ega boʻlgan dinamik obyektlarni adaptiv barqarorlashtirish algoritmlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biridir.

Mamlakatimizda hozirgi kunda avtomatlashtirish va boshqarish sohasiga, xususan, turli texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish, energiya va resurs tejamkorligini taʼminlovchi, takomillashtirilgan boshqarish tizimlarini yaratishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga moʻljallangan “Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida «Sanoat tarmoqlarida yoʻqotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yoʻnalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish¹» boʻyicha qator vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni bajarish, xususan, parametrik noaniqliklar va tashqi gʻalayonlar mavjudligi sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintez qilish algoritmlarini yaratish muhim vazifalardan biri sanaladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktyabrdagi PF-169-son «Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi Farmoni, va 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ-3983-son

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 «2022-2026-yillarga moʻljallangan yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida» Farmoni.

«O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son «2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bevosita yondashuv mezonini asosida parametrik noaniqlik va tashqi g‘alayonlar sharoitidagi obyektlarni adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlarini ishlab chiqish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarga tegishli bo‘lgan so‘nggi yillardagi adabiyotlarni tahlil qilish ushbu sohada bir qancha nazariy va amaliy natijalarga erishilganligini ko‘rsatadi. Adaptiv boshqarish tizimlari sohasida olib borilgan tadqiqotlar tufayli ko‘plab ilmiy ishlar nashr etilgan va ularning soni ortib bormoqda. Etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarining rivojiga ko‘plab xorijlik olimlar, jumladan Miroshnik I.V.²., Nikiforov V.O.²., Fradkov A.L.²., Aleksandrov A. G.³., Neymark Yu.I.⁴., Bronnikov A. M., Kruglov S. P.⁵., Sikunov A. M.⁶., Furtat I. B.⁷., Kotelnikov I.V.⁸., Eryomin E.L.⁹., va boshqalar hamda mamlakatimiz olimlaridan – Yusupbekov N.R.¹⁰., Bekmuratov T.F., Igamberdiyev X.Z.^{10,11,12}, Kamilov M.M., Ismailov M.A., Siddikov I.X., Zaripov O.O.¹¹., Sevinov J.U.¹¹., Mamirov O. F.¹⁰, Botirov T.V.¹² va boshqalar o‘zlarining ulkan hissalarini qo‘shishgan.

Biroq, ilmiy tadqiqotlar doirasining doimiy ravishda murakkablashishi va kengayishi sababli parametrik noaniqlik va tashqi g‘alayonlar sharoitidagi obyektlarni etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini yangi samarali usullari va algoritmlarini ishlab chiqish talab etiladi. Bundan tashqari, etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq,

² Мирошник И.В., Никифоров В.О., Фрадков А.Л. Нелинейное и адаптивное управление сложными динамическими системами. – СПб: Наука, 2000.

³ А. Г. Александров, Адаптивное управление с эталонной моделью при внешних возмущениях, Автомат. и телемех., 2004, выпуск 5, 77–90.

⁴ Ю. И. Неймарк, Синтез и функциональные возможности квазиинвариантного управления, Автомат. и телемех., 2008, выпуск 10, 48–56.

⁵ А. М. Бронников, С. П. Круглов, “Упрощенные условия адаптируемости системы управления с идентификатором и эталонной моделью”, Автомат. и телемех., 1998, № 7, 107–117.

⁶ А. М. Цыкунов, “Алгоритмы робастного управления с компенсацией ограниченных возмущений”, Автомат. и телемех., 2007, №7, 103–115;

⁷ И. Б. Фуртат, П. А. Гущин, Алгоритм управления в условии насыщения сигнала управления и его производных, УБС, 2019, выпуск 77, 47–69.

⁸ Котельников, И. В., Теклина, Л. Г. (2014). Синтез линейных ММО-систем квазиинвариантного управления методами распознавания образов. Вестник Нижегородского университета им. Н. И. Лобачевского, (4-1), 388-393.

⁹ Еремин Е. Л., Никифорова Л. В., Пикуль З. Д., Теличенко Д. А. Комбинированный регулятор для структурно и параметрически неопределенного объекта с запаздыванием по управлению // Датчики и системы. - 2019. - № 10(240).

¹⁰ Yusupbekov N. R., Igamberdiev H. Z., Mamirov U. F. Stable algorithms for adaptive control and adaptation of uncertain dynamic objects based on reference models //CEUR Workshop Proceedings. – 2021. – Т. 2965. – С. 296-302.

¹¹ Igamberdiyev, H. Z., Yusupbekov, A. N., Zaripov, O. O., & Sevinov, J. U. (2017). Algorithms of adaptive identification of uncertain operated objects in dynamical models. Procedia computer science, 120, 854-861.

¹² Igamberdiev H. Z., Botirov T. V. Algorithms for the synthesis of a neural network regulator for control of dynamic objects //World Conference Intelligent System for Industrial Automation. – Cham : Springer International Publishing, 2020. – С. 460-465.

bu esa murakkab dinamik tizimlarni boshqarish samaradorligini oshiradi. Quyida keltirib o‘tilganlardan ko‘rinaki, tashqi ta’sirlar va noaniq sharoitdagi dinamik obyektlarni adaptiv boshqarish sistemalarini sintezlashning samarali algoritmlarini takomillashtirish va yaratish yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarning 11/2021-E-son “Navoiy kon-metallurgiya kombinatining markaziy kon boshqarmasidagi 5- va 7-sonli gidrometallurgiya zavodlarida raqamli texnologiyalar asosida texnologik jarayonlarni intellektual boshqarish tizimlarini ishlab chiqish”(2020- 2021), 01-01/28-1-sonli “NKMK AJ ehtiyojlari uchun yer osti kon ishlarida xodimlar xavsizligini ta’minlash avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish va joriy etish”(2024-2025) va 01-01/29-1-sonli “Ochiq kon ishlarida kon transporti komplekslarini intellektual boshqarish axborot tizimini ishlab chiqish”(2024-2025) mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi parametrik noaniqliklar va tashqi ta’sirlar mavjudligi sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintez qilish algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

parametrik noaniqlik va tashqi g‘alayonlar mavjudligi sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintez qilish algoritmlarining rivojlanishini tizimli tahlil qilish;

parametrik noaniqlik sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimini sintez qilish algoritmlarini ishlab chiqish;

timsollarni tanish usullarida etalon modeli kvazi-invariant chiziqli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash;

etalon modeli chiziqli uzluksiz boshqarish tizimlarining moslashuvchanlik algoritmini ishlab chiqish;

tashqi chegaralangan g‘alayonlar va signalning to‘yinganlik sharoitida parametrlarning ixtiyoriy nisbiy noaniqlik darajasi bilan adaptiv boshqarish algoritmlarini sintez qilish;

parametrik noaniqliklar va tashqi g‘alayonlar mavjudligi sharoitida ishlab chiqilgan etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintez qilish algoritmlarini amaliy qo‘llash.

Tadqiqotning obyekti. Tadqiqotning obyekti sifatida etalon modeli dinamik obyektlarni adaptiv boshqarish tizimlari olingan.

Tadqiqotning predmeti. Parametrik noaniqliklar va tashqi g‘alayonlar mavjudligi sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlari.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tizimli tahlilning umumiy metodologiyasi, dinamik baholash va adaptiv boshqarish usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarining ishonchliligi va aniqligini oshirishga imkon beruvchi parametrik noaniqliklar sharoitida sintezlash algoritmlari ishlab chiqilgan;

parametrik g'alayonlarni samarali qayta ishlab berish va real vaqtda zaruriy boshqarish sifatini ta'minlash imkonini beruvchi timsollarni tanish usullarida etalon modeli kvazi-invariant chiziqli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlari ishlab chiqilgan;

turli sharoitlarida ishlovchi tizimlarning egiluvchanligi va boshqarish samaradorligini oshirishga imkon beruvchi etalon modeli chiziqli uzluksiz boshqarish tizimlarining moslashuvchanlik algoritmlari ishlab chiqilgan;

murakkab shovqinli-signal sharoitida boshqarish tizimlarining barqarorligi va samaradorligini ta'minlovchi, tashqi chegaralangan g'alayonlar va signalning to'yinganlik sharoitida parametrlarning ixtiyoriy nisbiy noaniqlik darajasi bilan adaptiv boshqarish algoritmlari sintez qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

formalinni ishlab chiqarishda formaldegid sintezning texnologik jarayonini avtomatlashtirish va adaptiv boshqarishning strukturaviy va funksional sxemalari ishlab chiqilgan;

jarayonlar borishining texnologik rejimini barqarorlashtirishga va ularning samaradorligini oshirishga imkon beruvchi texnik ta'minotga muvofiq holda formaldegid ishlab chiqarish texnologik jarayonining etalon modeli adaptiv boshqarish tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan tadqiqot natijalarining ishonchliligi uslubiy jihatdan asoslangan nazariy hisoblashlarning amalga oshirilishi, dinamik obyektlarni etalon modeli adaptiv boshqarishning nazariy asoslangan mezonlarining qo'llanilishi, zamonaviy avtomatik boshqarishning sinovdan o'tgan algoritmlarining ishlatilishi, nazariy hamda amaliy tadqiqotlarning olingan natijalari, ularning o'zaro muvofiqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati parametrik noaniqliklar hamda tashqi ta'sirlar mavjudligi sharoitlarida boshqarish jarayonlari sifatini oshirishga imkon beruvchi etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintez qilish algoritmlarining yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati adaptiv boshqarishning turli masalalari uchun matematik, algoritmik ta'minotni ishlab chiqish hamda uzluksiz xarakterdagi texnologik jarayonlarni boshqarishda qo'llaniladigan adaptiv tizimlarning funksional strukturalarini yaratish va ularni loyihalash jarayonini avtomatlashtirishda keng qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bevosita yondashuv mezonlari asosida dinamik obyektlarning adaptiv boshqarish tizimlarini sintez qilish bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

ishlab chiqilgan parametrik noaniqliklar va tashqi g'alayonlar mavjudligi sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlarining dasturiy ta'minoti "Navoiyazot" AJ da joriy qilingan ("O'ZKIMYOSANOAT" AJ ning 2024-yil 19-iyundagi 23-3-1960-son ma'lumotnomasi). Natijada, tizimning moslashish jarayolarini ishonchliligi va aniqligini oshirishga imkon bergan;

ishlab chiqilgan timsollarni tanish usullari asosida etalon modeli kvazi-invariant chiziqli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlarining dasturiy ta'minoti "Navoiyazot" AJ da joriy qilingan ("O'ZKIMYOSANOAT" AJ

ning 2024-yil 19-iyundagi 23-3-1960-son ma'lumotnomasi). Natijada, real vaqt rejimida talab etilgan boshqarish sifatini ta'minlash va parametrik g'alayonlarni samarali qayta ishlashga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Ushbu tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilindi va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha hammasi bo'lib 19 ta ilmiy ish qilingan, shulardan 8 ta ilmiy maqolalar bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika jurnallarida 4 ta, xalqaro jurnallarda 4 ta chop etilgan. Shuningdek, EHM lar uchun dasturiy mahsulotlarga ro'yxatdan o'tgan 4 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, dissertatsiya hajmi 102 betni tashkil etadi, jumladan foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot predmeti va obyekti ko'rsatilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan. Olingan tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliy qo'llanilishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintez qilishning hozirgi holati va tizimli tahlili**» nomli birinchi bobida noaniqlik sharoitida etalon modeli bilan adaptiv boshqarish tizimlari, parametrik noaniqliklar va tashqi g'alayonlar mavjudligi sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlari, tadqiqotning maqsadi va vazifasining qo'yilishi keltirilgan.

Hozirgi vaqtda avtomatik boshqarish nazariyasining rivojlanishi boshqarish obyektlari va ularga ta'sir qiluvchi g'alayonlar haqidagi ma'lumotlarning noaniqligini hisobga oladigan masalani shakllantirish va yechish bilan tavsiflanadi. Amalda faqat boshqarish obyektining tartibi va uning matematik modeli tenglamasining tuzilishi ma'lum bo'lgan holatlar mavjud. Bunday holda, obyekt parametrlarining qiymatlari aniqlanmagan bo'ladi.

Bu holda masalani yechish boshqarish obyektining o'zgaruvchan ish sharoitlariga ham, aprior noaniqlik mavjud bo'lganiga moslashish qobiliyatiga ega bo'lgan tizimlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Adaptiv boshqarish tizimlari uchun ishlab chiqilgan yondashuvlar, ularning ishlashi davomida boshqarish tuzilmasi va algoritm parametrlarini dinamik ravishda o'zgartirish orqali tizimning sifatini yuqori darajada oshirishga mo'ljallangan. Bunday holda, odatda, sozlanuvchan yoki etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlari qo'llaniladi.

Adaptiv boshqarish tizimlarida etalon modellaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyati - bu boshqarish va adaptatsiya maqsadlarining yagonaligi. Bu yerda ular bir xil xatti-harakati tizimning afzal qilingan xususiyatlarini aks ettiruvchi oldindan belgilangan etalon modeliga o'xshashligini ta'minlashga qaratilgan. Bunday yondashuv boshqarish va adaptatsiya maqsadlari o'rtasida yagonalikni yaratadi, bu o'ziga xos xususiyatdir.

Parametrik noaniqliklar va tashqi g'alayonlar bilan bog'liq dinamik obyektlar, adaptiv boshqarish tizimlarini sintez qilish uchun innovatsion algoritmlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Bu, to'g'ridan to'g'ri yondashuvning innovatsion konsepsiyalari asosida amalga oshiriladi. Biroq boshqarish vazifalarining o'zi diqqat markazida bo'lib, ushbu algoritmlarni sanoat ishlab chiqarish sohasidagi jarayonlarni avtomatlashtirish va boshqarish muammolarini yechishda samarali amalga oshirishga qodir bo'lgan intellektual hisoblash sxemalarini yaratish imkonini beradi.

Shunday qilib, ushbu holatlar noaniqlik sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintez qilish algoritmlarini yaratish zarurligini ko'rsatadi, bu doimiy o'zgaruvchan parametrlar va tashqi omillarning ta'siri sharoitida maksimal samaradorlikni ta'minlaydi, shuningdek, avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish tizimlaridagi masalalarni yechishning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Dissertatsiyaning «**Parametrik noaniqliklar sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlarini ishlab chiqish**» nomli ikkinchi bobda Parametrik noaniqliklar sharoitida etalon modeli boshqarish tizimini sintezlash algoritmlari taklif qilingan. Timsolni tanish usulida etalon modeli kvazi-invariant chiziqli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlari ishlab chiqilgan.

Boshqarish obyekti va etalon model quyidagi ko'rinishda ifodalangan bo'lsin:

$$(p^n + a_1 p^{n-1} + \dots + a_{n-1} p + a_n) y(t) = -u(t) + \xi(t) , \quad (1)$$

va

$$(p^n + b_1 p^{n-1} + \dots + b_{n-1} p + b_n) y_m(t) = r(t) , \quad (2)$$

bu yerda $a = (a_1, \dots, a_n)$ - boshqarish obyektining parametrlari, $u(t)$ - boshqaruvchi, $y(t)$ - chiqish koordinatasi, $\xi(t)$ - g'alayon, $y_m(t)$ - etalon modelning chiqishi, $r(t)$ - etalon modeliga kiruvchi ta'siri.

Boshqarish maqsadi:

$$|\Delta(t)| = |y(t) - y_m(t)| < \delta ,$$

bu yerda δ - berilgan aniqlik.

Boshqarish quyidagicha bo'lsin:

$$\mu u(t) = (p^{n-1} + d_1 p^{n-2} + \dots + d_{n-2} p + d_{n-1})(y - y_m) , \quad (3)$$

bu yerda $(d_1, \dots, d_{n-1}, \mu)$ - parametrlar vektori.

(1) va (3) ga asoslanib quyidagicha yozish mumkin:

$$\left\{ \begin{array}{l} \dot{y}_1(t) = y_2(t), \\ \dots\dots\dots \\ \dot{y}_{n-1}(t) = y_n(t), \\ \dot{y}_n(t) = \sum_{i=1}^n b_{n+1} y_i(t) + r(t), \\ \dot{y}_{n+1}(t) = y_{n+2}(t), \\ \dots\dots\dots \\ \dot{y}_{2n-1}(t) = y_{2n}(t), \\ \dot{y}_{2n}(t) = \sum_{i=1}^{n-1} \frac{d_{n-i}}{\mu} y_i(t) + \frac{1}{\mu} y_n(t) - \sum_{i=1}^{n-1} \left(a_{n+1-i} + \frac{d_{n-i}}{\mu} \right) y_{n+i}(t) - \left(a_1 - \frac{1}{\mu} \right) y_{2n}(t) + \xi(t). \end{array} \right. \quad (4)$$

$$|\Delta(t)| = |y_{n+1}(t) - y_1(t)| < \delta. \quad (5)$$

$\Omega = \{\omega = (a_1, \dots, a_n, d_1, \dots, d_{n-1}, \mu)\}$ parametr to‘plamidan Ω^* to‘plam sohasini aniqlaymiz.

Masalani yechish $\tilde{\Omega}^* \subseteq \Omega^*$ qism to‘plaming tavsifini topishdan iborat. Yechimning quyidagi variantini ko‘rib chiqamiz. Har bir (a_1, \dots, a_n) parametri uchun $(d_1, \dots, d_{n-1}, \mu)$ parametrlar to‘plami mavjud bo‘lsin.

$\tilde{\Omega}^*$ maydoni $A^* = \{a = (a_1, \dots, a_n)\}$ va $\varphi_i(\omega) = a_i, i = 1, \dots, n$ bilan aniqlangan silindrik to‘plam bo‘lishi kerak, shunda $\tilde{\Omega}^* = \{\omega \setminus (\varphi_i(\omega), \dots, \varphi_n(\omega)) \in A^*\}$ to‘plam quriladi.

Boshqarish obyekti quyidagi tenglamalar yordamida tasvirlangan bo‘lsin:

$$\begin{cases} A(p)x = -B(p)u + F(p)(\theta(t)) \\ y = C_y(p)x + D_y(p)u, \\ C(p)u = D(p)x, \end{cases} \quad (6)$$

bu yerda $A(p), B(p), F(p), C_y(p), D_y(p), C(p), D(p)$ - lar haqiqiy matritsaviy ko‘phadlar. $\theta(t) = \phi(t) + \xi(t)$ $\phi(t), \xi(t)$ signallari oldindan noma’lum va $\xi(t)$ o‘lchovsiz g‘alayon.

Etalon modelni quyidagicha tavsiflaymiz:

$$A_m(p)y_m(t) = F_m(p)\phi(t). \quad (7)$$

bu yerda $(\det A_m(p) \neq 0$ da $\text{Re } p \geq 0)$ $A_m(p), F_m(p)$ - ko‘phadlar.

Tizimni sintezlash uchun quyidagi talablar qo‘yilgan:

- $C^{-1}(p), A^{-1}(p)$ va $(A^{-1}(p) + B^{-1}(p) \times C^{-1}(p)D(p))^{-1}$ - matritsalar mavjud;
- $A^{-1}(p)B(p), A^{-1}(p) \times F(p)$ va $(A(p) + B(p) \times C^{-1}(p)D(p))^{-1}A(p)$

matritsalarining barcha koeffitsiyentlari to‘g‘ri ratsional funksiyalar bo‘lsin.

U holda yopiq tizim $(A(p) + B(p) \times C^{-1}(p)D(p))x(t) = F(p)\xi(t)$ turg‘un bo‘ladi.

Timsolni tanish usuliga asoslangan masalani yechish uchun $C(p), D(p)$ matritsalarini tashkil etuvchi ko‘phadlarning koeffitsiyentlarini Ω noma’lum parametrlar fazosi sifatida tanlaymiz. Ω^+ maydon quyidagi shartlar asosida tanlanadi $\Omega^+ \subseteq \Omega_0 \subseteq \Omega$, bu yerda Ω_0 - tizimning turg‘unlik sohasi.

Masalani timsollarni tanib olish usullari bilan yechish natijalari parametrlar sohasini qurishga, shuningdek, boshqaruv tizimining tu‘rgunlik shartlarini aniqlashga imkon beradi.

$\omega_0 \in \Omega_0$ parametr qiymatlarini aniqlash $\min \Lambda(\omega)$, $\Lambda(\omega) = \max(\operatorname{Re} \lambda,)$, $\Lambda(\omega) < 0$ minimallashtirish masalasini yechish orqali amalga oshiriladi.

$\omega^+ \in \tilde{\Omega}^+ \subseteq \Omega_0$ to'plamdan $\min_{\omega \in \Omega_0} F(\omega)$ masalani yechish uchun foydalaniladi, bunda $F(\omega) = \max_{t>T} \left\| \tilde{x}(t, \omega) \right\|$, $\tilde{x}(t, \omega)$ - ω ga bog'liq tizim yechimidir.

Minimallashtirish jarayoni $F(\omega) < \varepsilon$ shart bajarilgunga qadar davom etadi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar kvazi-invariant adaptiv boshqaruv tizimlarini qurishning yangi algoritmini ishlab chiqishda timsollarni tanib olish usulini qo'llash samarali ekanligini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning «**Tashqi g'alayonlarda etalon modeli adaptiv tizimlarni sintezlash algoritmlarini ishlab chiqish**» nomli uchinchi bobida tashqi g'alayonlarda etalon modeli adaptiv boshqarish, tashqi g'alayonlar sharoitida chiziqli tizimlarni boshqarish, etalon modeli chiziqli uzluksiz boshqarish tizimlarining moslashuvchanligini tahlil qilish algoritmlarini ishlab chiqish taklif qilingan. Tashqi chegaralangan g'alayonlar va signalning to'yinganlik sharoitida parametrlarning ixtiyoriy nisbiy noaniqlik darajasi bilan adaptiv boshqarish algoritmlari sintez qilingan.

Quyidagi umumiy ko'rinishda keltirilgan chiziqli uzluksiz boshqarish tizimining harakat tenglamasini ko'rib chiqamiz:

$$\begin{cases} \dot{x} = Ax + Bu, & x_0(t) = x_0, \\ y = Cx, & y_0(t) = y_0, \end{cases} \quad (8)$$

Etalon modelining tenglamalari quyidagi ko'rinishda tasvirlanadi:

$$\begin{cases} \dot{x}_m = A_m x_m + B_m u_m, & x_0(t) = x_0, \\ y_m = C_m x_m, & y_0(t) = y_0, \end{cases} \quad (9)$$

Boshqarish maqsadiga erishishni ta'minlaydigan boshqarish ta'siri quyidagi ko'rinishda quriladi:

$$u = B^+ [(A_m - A)x + B_m u_m]. \quad (10)$$

Erzbergerning zaruriy shartlarining bajarilishi B^+ psevdoteskari matritsasi bilan:

$$BB^+(A_m - A) = A_m - A, \quad BB^+B_m = B_m, \quad (11)$$

quyidagi ko'rinishda yozilishi mumkin:

$$\operatorname{rank} B = \operatorname{rank}(B, A_m - A) = \operatorname{rank}(B, B_m). \quad (12)$$

Adaptatsiya xatosi quyidagi vektor sifatida aniqlanadi:

$$e = x - x_m, \quad (13)$$

(8) va (9) ning birinchi tenglamalari hosilalari ayirmasidan va (10)dan foydalanib quyidagi shaklda ifodalanadi

$$\dot{e} = \dot{x} - \dot{x}_m = Ax + Bu - A_m x_m - B_m u_m,$$

yoki

$$\dot{e} = Ax + A_m x - Ax + B_m u_m - A_m x_m - B_m u_m, \quad (14)$$

(13) ga asoslangan holda (14) tenglama bir jinsli differensial tenglama sifatida ifodalanadi:

$$\dot{e} = A_m(x - x_m)$$

yoki:

$$\dot{e} - A_m e = 0. \quad (15)$$

(15) ga Laplas almashtirishini qo'llash orqali bir jinsli chiziqli tenglamalar sistemasi hosil bo'ladi:

$$\begin{pmatrix} p e_1(p) \\ p e_2(p) \\ \vdots \\ p e_m(p) \end{pmatrix} - \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1m} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2m} \\ \vdots & \vdots & \vdots & \vdots \\ a_{m1} & a_{m2} & \dots & a_{mm} \end{pmatrix} \begin{pmatrix} e_1(p) \\ e_2(p) \\ \vdots \\ e_m(p) \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 0 \\ 0 \\ \vdots \\ 0 \end{pmatrix},$$

yoki

$$\begin{cases} e_1(p)(p - a_{11}) + e_2(p)a_{12} + \dots + e_m(p)a_{1m} = 0 \\ a_{21}e_1(p) + e_2(p)(p - a_{22}) + \dots + e_m(p)a_{2m} = 0 \\ \dots \\ a_{m1}e_1(p) + e_2(p)a_{m2} + \dots + e_m(p)(p - a_{mm}) = 0 \end{cases}. \quad (16)$$

Bir jinsli tenglamalar sistemasi hamma vaqt birgalikda (chunki $\text{rang}(A_m) = \text{rang}(F)$) va nolga teng bo'lgan (trivial)

$$e_1 = e_2 = \dots = e_m = 0, \quad (17)$$

yechimga ega.

Shunday qilib (17) munosabatlardan foydalanib, (15) tenglamaning yechimi $e(t)$ adaptatsiya xatosini topish mumkin.

Sozlash xatoligini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$\Delta(t) \equiv 0 \quad (18)$$

(8), (9) va (10) ga asoslanib, tenglamani quyidagi ko'rinishda yozishimiz mumkin:

$$\begin{aligned} \dot{\Delta} &= \dot{y}_m - \dot{y} = C_m(A_m x_m + B_m u_m) - C(Ax + Bu) = \\ &= C_m A_m x_m + C_m B_m u_m - CAx - CBu = \\ &= C_m A_m x_m + C_m B_m u_m - CAx - CBB^+[(A_m - A)x + B_m u_m] = \\ &= -CAx - CA_m x + CAx - CB_m u_m + C_m A_m x_m + C_m B_m u_m, \end{aligned} \quad (19)$$

yoki

$$\dot{\Delta} + A_m \Delta = B_u u_m (C_m - C) \quad (20)$$

(20) hisobga olgan holda tenglama quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$\dot{\Delta} = A_m \Delta + u_m \Delta k_{u_m} \quad (21)$$

Lyapunovning umumiy kvadratik funksiyasini quyidagi ko'rinishda quramiz:

$$V(\Delta, \Delta k_{u_m}) = \frac{1}{2} [\Delta^2 + \lambda \Delta k_{u_m}^2]. \quad (22)$$

Ushbu funksiyaning vaqt bo'yicha hosilasi:

$$\dot{V}(\Delta, \Delta k_{u_m}) = \Delta \dot{\Delta} + \lambda \Delta k_{u_m} \Delta \dot{k}_{u_m}$$

ko'rinishga ega, bunda:

$$\Delta \dot{k}_{u_m} = -\text{sign}\left(\frac{1}{\lambda}\right) u_m \Delta. \quad (23)$$

(21) va (23) hisobga olgan holda quydagiga ega bo‘lamiz:

$$\begin{aligned} \dot{V}(\Delta, \Delta k_{u_m}) &= \Delta(A_m \Delta + u_m \Delta k_{u_m}) + \lambda \Delta k_{u_m} \Delta \dot{k}_{u_m} = A_m \Delta^2 + \Delta u_m \Delta k_{u_m} + \lambda \Delta k_{u_m} \Delta \dot{k}_{u_m} = \\ &= A_m \Delta^2 + \Delta u_m \Delta k_{u_m} + \lambda \Delta k_{u_m} \left(\text{sign}\left(\frac{1}{\lambda} u_m \Delta\right) \right) = -A_m \Delta^2. \end{aligned} \quad (24)$$

Tanlangan Lyapunovning kvadrat shaklidagi funksiyasi (22) sintezlangan boshqarish tizimi turg‘unligini ta’minlaydi. Barbalata lemmasiga ko‘ra $\dot{V} \rightarrow 0$ bo‘lsa va $t \rightarrow \infty$ da $\Delta(t) \rightarrow 0$ bo‘lsa, \dot{V} tekis uzluksiz bo‘ladi.

Shunday qilib, o‘zgaruvchilarning chegaralanganligi va $\Delta(t)$ boshqarish xatosining nolga yaqinlashishi A_m va λ ning ixtiyoriy musbat qiymatlari uchun bajariladi.

Boshqarish obyekti quyidagi tenglama bilan tavsiflansin:

$$\begin{cases} \dot{x}(t) = Ax(t) + Bu(t) + \xi(t), & x(0) = x_0 \\ y(t) = Cx(t) \end{cases} \quad (25)$$

Etalon model quyidagicha bo‘lsin:

$$\begin{cases} \dot{x}_m(t) = A_m x_m(t) + B_m r(t), & x_m(0) = x_{m0}, \\ y_m(t) = C_m x_m(t), \end{cases} \quad (26)$$

bu yerda A_m - Gurvisli, x_{m0} - boshlang‘ich shartlar.

Masalani yechish uchun quyidagi shartlar bajarilish zarur:

1. (A, B) juftlik boshqariladigan, (A, C) juftlik esa kuzatiladigan.
2. Chiqish signalining quyidagi boshlang‘ich shartlari qanoatlantirilishi zarur:

$$\left\| \{y(0), \dot{y}(0), \dots, y^{(n-1)}(0)\} \right\| \leq \bar{y}.$$

Boshqarishning maqsadi tizimning turg‘unligini ta’minlaydigan shartning bajarilishidan iborat.

$$|y(t) - y_m(t)| < \Delta, \quad (27)$$

bu yerda $\Delta > 0$.

Bunday holatda (25) va (26) tenglamalarni yuqori tartibli hosilalarga nisbatan yechib va o‘rniga qo‘yib:

$$y_m = x_1, \dot{y}_m = x_2, \dots, y_m^{(n-1)} = x_n, \quad (28)$$

$$y = x_{n+1}, \dot{y} = x_{n+2}, \dots, y^{(n-1)} = x_{2n} \quad (29)$$

quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\begin{aligned} \dot{x}_1 &= x_2, \\ \dot{x}_2 &= x_3, \\ &\dots\dots\dots \\ \dot{x}_{n-1} &= x_n, \\ \dot{x}_n &= -b_n x_1 - b_{n-1} x_2 - \dots - b_1 x_n + r(t), \\ y_m &= x_1, \end{aligned} \quad (30)$$

$$\begin{aligned}
\dot{x}_{n+1} &= x_{n+2}, \\
\dot{x}_{n+2} &= x_{n+3}, \\
&\dots\dots\dots, \\
\dot{x}_{2n} &= \mu_0 u - a_n x_{n+1} - a_{n-1} x_{n+2} - \dots - a_1 x_{2n} + \xi(t), \\
y &= x_{n+1}.
\end{aligned}
\tag{31}$$

Berilgan (28)-(31) lardan foydalanib boshqarish xatoligini quyidagi shaklda ifodalaymiz:

$$|\Delta(t)| = |y(t) - y_m(t)| = |x_{n+1} - x_1| < \delta,$$

(25), (26) va (28) ni hisobga olgan holda, $\Delta(t)$ boshqarish xatoligi uchun quyidagi tenglamani yozamiz:


$$\begin{cases}
\Delta(t) = y(t) - y_m(t) = x_{n+1} - x_1, \\
\dot{\Delta}(t) = \dot{y}(t) - \dot{y}_m(t) = x_{n+2} - x_2, \\
\ddot{\Delta}(t) = \ddot{y}(t) - \ddot{y}_m(t) = x_{n+3} - x_3, \\
\dots\dots\dots \\
\Delta^{(n)}(t) = y^{(n)}(t) - y_m^{(n)}(t) = \dot{x}_{2n} - \dot{x}_n
\end{cases}
\tag{32}$$

$$\begin{aligned}
\Delta^{(n)}(t) &= \mu_0 u - a_n x_{n+1} - a_{n-1} x_{n+2} - \dots - a_1 x_{2n} + \xi(t) + b_n x_1 + b_{n-1} x_2 + \dots + b_1 x_n - r(t) = \\
&= \mu_0 u(t) + \xi(t) - r(t) - a_n y - a_{n-1} \dot{y} - \dots - a_1 y^{(n-1)} + b_n y_m + b_{n-1} \dot{y}_m + \dots + b_1 y_m^{(n-1)} + \\
&\quad + b_n y + b_{n-1} \dot{y} + \dots + b_1 y^{(n-1)} - b_n y - b_{n-1} \dot{y} - \dots - b_1 y^{(n-1)} = \\
&= \mu_0 u(t) + \xi(t) - r(t) - b_n \Delta(t) - b_{n-1} \dot{\Delta}(t) - \dots - b_1 \Delta^{(n-1)}(t) - \\
&\quad - y(a_n - b_n) - \dot{y}(a_{n-1} - b_{n-1}) - \dots - y^{(n-1)}(a_1 - b_1),
\end{aligned}
\tag{33}$$

(32) va (33) larni e'tiborga olib,

$$\Delta^{(n)}(t) + b_1 \Delta^{(n-1)}(t) + \dots + b_{n-1} \dot{\Delta}(t) + b_n \Delta(t) = \mu_0 u(t) + \mu_0 \psi(t), \tag{34}$$

bu yerda $\psi(t) = \xi(t) - r(t) - y(a_n - b_n) - \dot{y}(a_{n-1} - b_{n-1}) - \dots - y^{(n-1)}(a_1 - b_1)$ funksiyasi (25) obyektning parametrik va tashqi g'alayonlarini o'z ichiga oladi.



1- rasm. Etalon modeli adaptiv boshqarish tizimining strukturaviy sxemasi.

$\psi(t)$ funksiyasini hisoblash uchun yordamchi konturni kiritamiz (1-rasm):

$$\Delta_a^{(n)}(t) + b_1 \Delta_a^{(n-1)}(t) + \dots + b_{n-1} \dot{\Delta}_a(t) + b_n \Delta_a(t) = \mu_0 u(t), \quad (35)$$

bu yerda $\Delta_a(t)$.

(34) va (35) ni inobatga olgan holda

$$\zeta(t) = \Delta(t) - \Delta_a(t) \quad (36)$$

$$\zeta^{(n)}(t) + b_1 \zeta^{(n-1)}(t) + \dots + b_{n-1} \dot{\zeta}(t) + b_n \zeta(t) = \mu_0 \psi(t), \quad (37)$$

$$K_m(p) \zeta(t) = L_m(p) \psi(t), \quad (38)$$

(38) dan $\psi(t) = L_m^{-1} K_m(p) \zeta(t)$ ni olamiz. Uni (34) ga qo'yib va chiqish signalining hosilalarini o'lchash imkoniyati mavjud deb faraz qilgan holda, quyidagilarni olish mumkin:

$$u(t) = -L_m^{-1} K_m(p) \zeta(t), \quad (39)$$

$$\Delta^{(n)}(t) + b_1 \Delta^{(n-1)}(t) + \dots + b_{n-1} \dot{\Delta}(t) + b_n \Delta(t) = 0.$$

Demak, ko'rib chiqilayotgan boshqarish tizimi obyekt parametrlarining noaniqligi sharoitida ishlaydi. Ishlab chiqilgan algoritmda boshqarish obyektining chiqish hosilalarini o'lchash talab qilinmaydi, bu esa teskari konturni ishlash jarayonini soddalashtiradi.


Dissertatsiyaning «**Ishlab chiqilgan adaptiv boshqarish algoritmlarini texnologik obyektlarda qo'llanilishi**» nomli to'rtinchi bobida ishlab chiqilgan parametrik noaniqliklar va tashqi g'alayonlar mavjudligi sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlarini formalin ishlab chiqarish texnologik jarayonida boshqarish va avtomatlashtirishda qo'llash natijalari keltirilgan.

Formalin ishlab chiqarish jarayonini tadqiq qilish obyekt sifatida "Navoiyazot" AJning kontaktli apparati tanlangan (o'rnatilgan bosim 0,06MPa). Jarayonni baholash va nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'zgaruvchilar quyidagilarni o'z ichiga oladi (2-rasm):

1. Boshqaruvchi parametrlar: $U = (u_1, u_2)$, bu yerda u_1 - metanol sarfi; u_2 - dutyo sarfi.

2. Boshqariladigan parametrlar: $Y = (y_1, y_2)$, bu yerda y_1 - spirtli havo muhitidagi havo-metanol nisbati, y_2 - kontaktli aparat trubchatkasidagi harorat.

3. Nazorat qilinmaydigan g'alayonli ta'sirlar: $W = (\xi_1, \xi_2, \xi_3)$, bu yerda ξ_1 - xomashyo tarkibining og'ishi; ξ_2 - katalizator faolligi va selektivligining pasayishi; ξ_3 - issiqlik tashuvchining entalpiyasi va issiqlik yo'qotishlari.



2-rasm. Boshqarish obyektining strukturaviy sxemasi

Formalin ishlab chiqarish texnologik jarayonining chiziqli matematik modeli quyidagicha ko‘rinishga ega:

$$\begin{cases} \dot{x}(t) = Ax(t) + Bu(t), \\ y(t) = Cx(t), \end{cases}$$

Bu yerda $A = \begin{pmatrix} 0 & 1 \\ -a_2 & -a_1 \end{pmatrix}$, $B = \begin{pmatrix} 0 \\ \mu \end{pmatrix}$, $C = (1 \ 0)$.

Bunda $x = [x_1, x_2]^T$ - holat vektori, $y = [y_1, y_2]^T$ - chiqish vektori, $u = [u_1, u_2]^T$ - boshqaruvchi vektor va $\xi(t) = [\xi_1, \xi_2, \xi_3]^T$ - nazorat qilinmaydigan tashqi g‘alayonlar, bunda $|\xi(t)| \leq \bar{\xi}$, $\bar{\xi}$ - ma’lum kattalik.

Shunda parametrlarning o‘ziga xos qiymatlarini almashtirgandan so‘ng, tizim modeli quyidagicha yoziladi:

$$\begin{cases} \ddot{y}_1(t) + a_2^1 \dot{y}_1(t) + a_1^1 y_1(t) = \mu_1 u_1(t) \\ \ddot{y}_1(t) + a_2^2 \dot{y}_1(t) + a_1^2 y_1(t) = \mu_2 u_2(t) \\ \ddot{y}_2(t) + a_2^3 \dot{y}_2(t) + a_1^3 y_2(t) = \mu_3 u_1(t) \\ \ddot{y}_2(t) + a_2^4 \dot{y}_2(t) + a_1^4 y_2(t) = \mu_4 u_2(t) \end{cases}$$

Ushbu yondashuvning imkoniyatini ko‘rsatish uchun formalin ishlab chiqarishdagi kontakt apparatining tadqiqot natijalarini ko‘rib chiqamiz.

Kontaktli apparat trubchatkasidagi harorat $n=2$ tartibli chiziqli tenglama bilan tavsiflanadi:

$$(p^2 + a_1 p + a_2)y(t) = -u(t) + \xi(t).$$

Etalon model quyidagi ko‘rinishda tasvirlanadi:

$$(p^2 + 2p + 1)y_m(t) = 2 + 2 \sin t.$$

Tashqi g‘alayonlarning ta’siri ostida $\xi(t) = c \sin t$, $y_1(0) = y_2(0) = 0$, $y_3(0) = y_4(0) = 1$ va $\delta = 0.01$, $D^* = 0.99$ ko‘rinishida - sintez qilingan boshqarish qonuni quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\mu u(t) = (p + d_1)(y - y_m),$$

Ushbu ikkita sohani tanib olish vazifasini ketma-ket yechish natijasida quyidagilarni yozish mumkin:

$$S_1 = \begin{bmatrix} 2.245 \leq a_1 \leq 7.142 \\ 0.112 \leq a_2 \leq 5.917 \\ 1.090 \leq d_1 \leq 2.167 \\ 0.011 \leq \mu \leq 1.154 \end{bmatrix}, \quad S_2 = \begin{bmatrix} 2.252 \leq a_1 \leq 3.340 \\ 0.092 \leq a_2 \leq 0.452 \\ 1.090 \leq d_1 \leq 2.167 \\ 0.025 \leq \mu \leq 0.029 \end{bmatrix}.$$

Bu yerda S_1 - tizimning turg‘unlik sohasi, S_2 - boshqarish maqsadlarini amalga oshiruvchi parametrlar sohasi. S_1 ishonchlilik $D = 0.99$ bilan 100 namunadan tanlanadi, S_2 esa $D = 0.98$ ishonchlilik bilan 60 namunadan tanlanadi.


O‘tkazilgan tajribalar asosida quyidagilarni olamiz:

$$\begin{cases} \ddot{y}_1(t) + 3,331\dot{y}_1(t) + 0,156y_1(t) = 0,109u_1(t) \\ \ddot{y}_1(t) + 3,213\dot{y}_1(t) + 0,567y_1(t) = 0,129u_2(t) \\ \ddot{y}_2(t) + 2,357\dot{y}_2(t) + 1,194y_2(t) = 0,2321u_1(t) \\ \ddot{y}_2(t) + 5,452\dot{y}_2(t) + 1,996y_2(t) = 0,135u_2(t) \end{cases}$$

Natijalar shuni ko'rsatadiki, eng muhim kanal $u_1 \rightarrow y_2$ «metanol oqimi - kontakt apparati trubkasidagi harorat» hisoblanadi. Bu kanal eng katta kuchlanish koeffitsiyenti va eng kichik inersiyaga ega bo'lgani bilan ta'riflanadi. Shu sababli formalin olish jarayonini boshqarish tizimini sintez qilishda boshqaruvchi parametr - metanol sarfi asosida amalga oshiramiz.

Modelning monandligini aniqlash uchun modelning chiqish o'zgaruvchisi va qoldiqning dispersiyasi hisoblab chiqildi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, biz $F_{noz} = 28,8$ ga teng bo'ladigan nazariy Fisher mezonini aniqlaymiz.


Hisoblangan F_{naz} Fisher kriteriysining nazariy qiymati va $F_{jadval}(\alpha, k_1, k_2)$ jadval qiymati bilan sholishtiriladi, agar $F_{naz} > F_{jadval}$ shartni qanoatlantirsa, model monand bo'ladi. Bu yerda α - kritik qiymat (odatda $\alpha = 0,01$), erkinlik darajalari $k_1 = m$ va $k_2 = n - m - 1$. $n = 100$ va $m = 4$ bo'lgan holatda $F_{jadval} = 3,56$ ga teng bo'ladi. Shunday qilib, $F_{naz} = 28,8 > F_{jadval} = 3,56$ bo'lganligi uchun model monand.



3-rasm. MATLAB/Simulinkda boshqarishning ost tizim strukturaviy sxemasi


Ushbu kuzatuv masalasida obyektning $y(t)$ chiqishi etalon modelning $y_m(t)$ chiqishini belgilangan aniqlik bilan kuzatishi kerak (3-rasm).

4-rasmdan ko'rinib turibdiki $\xi(t)$ tashqi ta'sir Amplitudasi bo'yicha yetarlicha muhim.



4-rasm. $\xi(t)$ bilan kuzatish grafiği

5-rasmda Klassik PID-rostlagich tizimi va adaptiv boshqarish tizimini modellashtirish natijalari qiyoslanadi.



5-rasm. Boshqarish tizimini o'tish xarakteristikallari

Kontaktli apparatdagi harorat $385-390^{\circ}\text{C}$ bo'lganda adaptiv boshqarish tizimining vaqti mavjud boshqarish tizimining rostlash vaqtidan 6 minut kam ekanligi aniqlandi. Shuningdek, metanolning solishtirma sarfi $2\div 3\%$ ga kamayadi va xomashyoni tejash imkonini beradi. Bu esa adaptiv boshqarish tizimi klassik PID-rostlagich boshqarish tizimiga nisbatan kengroq imkoniyatlarga ega ekanligini bildiradi.

XULOSA

Dissertatsiyada tizimli tahlil, adaptiv boshqarish tizimlari nazariyasi, matematik modellash va tajriba natijalarini qayta ishlash usullari asosida parametrik noaniqliklar va tashqi g'alayonlar mavjudligi sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

1. Noaniqlik sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlari ishlab chiqilgan. Algoritmlar obyektning dinamik xususiyatlarini barqarorlashtirish va tizimning chiqishi etalon modelining chiqishiga mos kelishini ta'minlaydigan chiziqli rostlagichni qurishga imkon beradi.

2. Parametrik noaniqlik sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintez qilish algoritmlari ishlab chiqilgan. Ushbu algoritmlar etalon modeli adaptiv boshqarish tizimining ishonchliligi va aniqligini oshirishga imkon bergan.

3. Timsolni tanish usulda etalon modeli kvazi-invariant chiziqli adaptiv boshqarish tizimlarini sintez qilish algoritmlari ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan algoritm parametrik g'alayonlarni samarali qayta ishlash va real vaqtda zaruriy boshqarish sifatini ta'minlashga imkon beradi.

4. Etalon modeli chiziqli uzluksiz boshqarish tizimlarining moslashuvchanligini tahlil qilish algoritmlari ishlab chiqilgan. Taklif qilingan algoritm turli sharoitlarda ishlovchi tizimlarni boshqarish samaradorligi va egiluvchanligini oshirishga imkon beradi.

5. Tashqi chegaralangan g'alayonlar va signal to'yinganligi mavjudligi sharoitida ixtiyoriy nisbiy parametrlar noaniqligida adaptiv boshqarish algoritmi sintez qilingan. Ishlab chiqilgan algoritm murakkab shovqinli-signallarni boshqarish tizimlarining barqarorligi va samaradorligini ta'minlash hamda ixtiyoriy nisbiy parametrlar noaniqligida adaptiv boshqarishga imkon beradi.

6. Taklif etilgan parametrik noaniqliklar va tashqi g'alayonlar mavjudligi sharoitida etalon modeli adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash algoritmlari asosida formalin ishlab chiqarish texnologik jarayonini adaptiv boshqarish tizimi ishlab chiqilgan. Kontaktli apparatdagi harorat 385-390°C bo'lganda adaptiv boshqarish tizimining vaqti mavjud boshqarish tizimining rostlash vaqtidan 6 minut kam ekanligi aniqlandi. Shuningdek, metanolning solishtirma sarfi 2÷3% ga kamayadi, bu esa xom ashyoni tejash imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.03.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАВОИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ГОРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

ЛАТИПОВ ШАХРИЁР БАХТИЁРОВИЧ

**АЛГОРИТМЫ СИНТЕЗА АДАПТИВНЫХ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ С
ЭТАЛОННОЙ МОДЕЛЮ В УСЛОВИЯХ ПАРАМЕТРИЧЕСКОЙ
НЕОПРЕДЕЛЕННОСТИ И НАЛИЧИЯ ВНЕШНИХ ВОЗМУЩЕНИЙ**

**05.01.08 - Автоматизация и управление технологическими
процессами и производствами**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №В2023.2.PhD/Т3652.

Диссертация выполнена в Навоийском государственном горно-технологическом университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.tdtu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: **Ботиров Тулкин Вафокулович**
доктор технических наук, доцент

Официальные оппоненты: **Севинов Жасур Усмонович**
доктор технических наук, профессор

Хусанов Субан Нуруллаевич
PhD., доцент

Ведущая организация: **Ташкентский химико-технологический институт**

Защита диссертации состоится «15» 03 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.03.02 при Ташкентском государственном техническом университете (Адрес: 100095, г.Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел: (99871) 246-46-00; факс: (99871) 227-10-32; e-mail: tstu_info@tdtu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета (зарегистрировано № 7) (Адрес: 100095, г. Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: 246-03-41).

Автореферат диссертации разослан «27» 02 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 23 от «12» 01 2025 года)



И.Р.Юсупбеков
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор, академик АН РУз

У.Ф.Мамиров
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

Х.З.Игамбердиев
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению ученых степеней,
д.т.н., профессор, академик АН РУз

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В последнее время в мире уделяется особое внимание созданию инновационных технологий, направленных на повышение эффективности производственно-технологических процессов, совершенствованию существующих технологий, а также разработке адаптивных систем управления сложными динамическими объектами. В последние годы актуальными стали вопросы синтеза алгоритмов адаптивного управления различного функционального назначения в соответствии с динамическими характеристиками объектов и разработка систем оптимального управления на основе эталонных моделей. Учитывая сложность процессов управления и неизвестные или изменяющиеся параметры объектов, разработка моделей адаптивных систем управления и их эффективное применение считаются одними из актуальных задач современности.

В мире ведутся научные исследования, направленные на повышение точности законов управления разрабатываемых систем управления технологическими процессами и производствами в обеспечении оперативности процесса принятия решений и поиска оптимального решения под воздействием различных возмущений. В этом направлении проводятся исследования, посвященные разработке эталонно-модельных адаптивных систем управления с целью обеспечения адаптивности систем управления динамическими объектами к различным возмущающим воздействиям, а также оценке состояния управляемых объектов в условиях параметрической неопределенности. В рамках данного исследовательского направления одной из важных задач является совершенствование методов и алгоритмов синтеза эталонно-модельных адаптивных систем управления, а также разработка алгоритмов адаптивной стабилизации динамических объектов с неизвестными параметрами и внешними возмущениями.

В нашей стране, в настоящее время, особое внимание уделяется сфере автоматизации и управления, в частности, созданию усовершенствованных систем управления, обеспечивающих автоматизацию различных технологических процессов и производств, а также сбережения энергии и ресурсов. В новой Стратегии развития Узбекистана на период 2022-2026 годов, подчеркнута важность «Снижения потерь в отраслях промышленности и повышение эффективности использования ресурсов, внедрение современных механизмов поддержки исследований и инновационных инициатив»¹. Одной из важнейших задач является, в частности, создание алгоритмов синтеза стандартных моделей адаптивных систем управления при наличии параметрических неопределенностей и внешних возмущений.

Данное диссертационное исследование в определенной степени способствует выполнению задач, предусмотренных в указах Президента Республики Узбекистан № УП-169 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию промышленности и ее базовых отраслей» от 12 октября 2023 года, а

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

